



FIZIKA DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qodirov Abdusattorxoji Mamajonovich

Toshloq tumani 2-son kasb hunar maktabi “Aniq fanlar” kafedrasini o'qtuvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada fizika fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularni o'tishdagi interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, texnologiya, dars, interfaol, fizika, muammo, qobiliyat

Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir. Barcha o'quv-laboratoriya jihozlari mavjud bo'lgan umumta'lim maktablarida fizika darslarini olib borishda o'quvchilarning tushunchalar ko'lami keng, mustaqil fikrlashga unday oladigan ko'nikmalarni shakllanishida muhim turtki bo'ladigan uslubni - muammoli usulni qo'llash ko'roq ijobiy natija bermoqda.

Muammoli o'qitish oddiy o'qitishdan yuqori darajada ma'lumot saqlashni va o'quvchini tajribaga qiziqtirishni orttirish bilan farqlanadi. Muammoli o'qitishda o'qituvchi eng murakkab tushunchalar haqida bilim berishda yechim talab qilinadigan holatlarni muntazam ravishda keltiradi, o'quvchilarga faqat faktlar yetkazib berish bilan chegaralanmay, balki faollashtirish usulini ham qo'llab bilim beradi. Muammolarni tahlil qilib, o'quvchilar mustaqil xulosaga keladilar. Bunda o'qituvchi yordamida o'rganilayotgan qonun va qoidalarni to'g'riligiga xulosa yasaladi. Namoyish tajribalari asosida o'tkaziladigan muammoli darslar yordamida o'qituvchilar bilim olish va bu bilimlarni amalda mustaqil qo'llash imkoniyatiga erishadilar.



Masalan: Suyuqlik xossalarini o'rganishda, suyuqlikni turli diametrli kapilyar naychalardan ko'tarilishini, turli shakldagi shisha idishlarda egallagan vaziyatlarini ko'rsatish va tahlil qilishlariga yo'naltirish lozim. Namoyish tajribalarining muammoli ko'rsatish o'quvchilarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish, hamda ma'lum mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikr muloxazasini bayon qilish bilan birga, tengdoshlari davrasida o'zining tushunchasini bayon etish va fikrini himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul muommoli vaziyatni yaratish orqali amalga oshirilib, bevosita tajriba samarasi savolning hususiyatiga bog'liqdir. Bu borada qayta xotirlashga asoslangna savollar muammoli bo'la olmaydi, balki o'rganishni ko'zda tutilgan va hali o'quvchi-yoshlarga noma'lum bo'lgan bilimlarga aloqador savollar muammoli hisoblanadi. Muammoni yechish, noma'lumni qidirish o'quvchilarni ilmiy munozaraga, o'quvchilar jamoasini jonlantirishga va darsliklardan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashgan chorlaydi. O'quvchilarda har bir hodisaga mantiqiy yondoshuv ko'nikmalarini hosil qilish bilan birga ularni ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, darsga bo'lgan qiziqishini hamorttiradi.

Kreativ texnologiyalar asosida ta'lim berish nazariyasining ayrim jihatlari, o'quv jarayonida uni qo'llashga oid metodik tavsiyalar, ularga qo'yiladigan psixologik va metodik talablar, samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligiga qaramay, bunda o'ziga xos muammolarni, ya'ni kreativ texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va vazifasi, o'qituvchining shu sharoitdagi ahamiyatidan tortib, mazkur jarayonni bu texnologiya yordamida boshqarishning xususiyatlari, ta'lim berishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechishga to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar hal etilishi talab qilinadi: mazkur texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beruvchi dasturlar tuzish; fizika fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limga oid tavsiyalar ishlab chiqish. Mazkur muammolarni to'laqonli yechimi o'quvchilarga fizikaga oid bilimlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu holat o'z navbatida fizikadan ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ texnologiyalarning muhim tarkibiy mazmunini aniqlashga asos bo'ladi. Shu bois bu jarayonni mazkur texnologiyalar asosida tashkil etish muhim. Bu texnologiyalar mazmuni fizikadan ta'lim maqsadlarini nazarda tutgan texnologik ishlanmalar, o'quv maqsadlarini nazarda tutuvchi o'ziga xos tasniflagichlar, Internet tizimi va elektron darsliklar, test topshiriqlari, to'la o'zlashtirish texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi.



Buning uchun biz kreativ va unga hamohang pedagogik texnologiyalar elementlaridan foydalanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim bo'yicha axborot texnologiyalari: tadqiqotlar. O'qish uchun qo'llanma Yuqori. Tadqiqotlar. muassasalar "Akademiyaning" nashriyot markazi, 2008 yil.

2. Maktabda fizikani o'qitish nazariyasi va metodikasi. Ed. S.E. Kamenetskiy. M: Akademiya, 2000 yil.

3. Malikov, K. H., Begzatova, Sh. P. (2021). Maktab laboratoriya xonasi eksperimental bilimlar manbai. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 8(1), 697-703.

4. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsya // Nauchno-metodicheskiy jurnal.- Moskva, 2008y